

«Газли магистрал газ қувурлари бошқармаси» кейинги уринларда «Ижрочи»номи билан уз низоми асосида иш юритадиган корхона раҳбари Ш.Д.Хайдаров бир томонидан _____ кейинги уринларда «Буюртмачи» деб юритилади, уз низоми асосида иш юритувчи корхона раҳбари _____ иккинчи томондан куйдагилар тугрисида мазкур шартнома туздилар.

1. Шартнома предмети.

1.1. «Буюртмачи»нинг талабига кура «Ижрочи» ичимлик суви етказиб бериш мажбуриятини олади :

Бир кунда _____ м³. Бир ойда _____ м³. Бир йилда _____ м³.

1 м³ ичимлик суви учун бахо ККС билан _____ сум

Жами кабул килиб олинган ичимлик суви учун _____ сум.

1.2. «Буюртмачи» етказиб берилган ичимлик сувини кабул килиш, нархнома билан белгиланган бахода ва муддатда ҳақ тулаш мажбуриятини олади.

2. Ишлар (хизматлар) киймати ва ҳисоб-китоб килиш тартиби.

2.1. Курсатилган хизматлар учун шартноманинг тахминий баҳоси _____ сум ташкил этади.

2.2. Ҳисоб-китоблар тулов топширикномаси билан пул утказиш шаклида амалга оширилади.

2.3. Талаблар уртасидаги ҳисоб-китоблар сув улчаш асбобларининг курсатгичлари асосида амалга оширилади. «Буюртмачи» сув улчаш асбобларини урнатмаган тақдирда етказиб берилаётган ичимлик суви ва окизилаётган окова сувлар учун ҳақ қувур кесимига асосанжоо 24 соат давомида _____ м³/сек. тезликдаги сарфига мувофиқ олинади.

2.4. «Ижрочи» курсатадиган хизматлари учун тарифлар миқдори узгарган тақдирда, у бу ҳақда «Буюртмачи» ни ёзма равишда хабардор қилади.

3. Хизматларни курсатиш ва топшириш-кабул килиш тартиби.

3.1. «Ижрочи» ушбу шартноманинг 1чи бандида назарда тутилган хизматларни шахсан узи Ўзбекистон Республикасининг «Ичимлик суви ҳамда окова сувлари қувурларидан фойдаланиш қойидалари» ҳамда ушбу шартнома шартлари асосида курсатиши шарт.

3.2. «Буюртмачи» ҳар ойнинг 25чи кунидан кечикмасдан курсатилган хизматлар суммаси микторида узаро ҳисоб-китобларни солиштириш далолатномасини «Ижрочи»га етказиб имзолайдилар ва бу далолатнома тарафлар уртасида ҳисоб-китобларни амалга ошириш учун асос булади.

3.3. Ичимлик суви етказиб бериш сув иншоотининг насослари ишлаш графиги асосида ва окова сувларни кабул килиш узликсиз кечаю-кундуз амалга оширилади.

3.4. «Буюртмачи» ҳар ойда оладиган сув учун туланадиган пулнинг 30 % миқдорида аванс тулаши ва ҳар ой якуни буйича (25 числодан кечикмасдан) олинган сув тугрисида ҳисоб-варакасини «Ижрочи»дан олиб ва 5 (беш) кун муддатда олган сув харажатларини тўлаб бориши шарт. Акс ҳолда «Ижрочи» томонидан етказиб берилаётган сув тармоқдан кесилиб, унинг қайта тикланиши харажатларини «Буюртмачи»дан белгиланган тариф орқали ундириланади.

3.5. «Буюртмачи»узининг сув ва окова тармоқларини умумфойдаланишдаги ва «Ижрочи»нинг балансдаги гидрант ва қувурларга улаши учун «Ижрочи»га белгиланган наъмунадаги ариза бериши лозим.

3.6. Хизматларни курсатиш жараёнида уларни давом эттириш имкониятини йуклиги ва мақсадга мувофиқ эмаслиги аниқланган тақдирда, «Буюртмачи» бу ҳақда «Ижрочи»ни хабар килиш ва у билан бирга зарурий чора тадбирларни куриши шарт.

4. Тарафларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари.

4.1. «Буюртмачи»нинг мажбуриятлари:

4.1.1. Ичимлик суви шартномада курсатилган ойлик меъёрдан ошмаслиги керак, акс ҳолда шартномада курсатилган ойлик меъёрдан ошган сувнинг 1 м³ учун белгиланган тарифларга нисбатан 10,0 орттирилувчи коэффицентни қўллаш йули билан ҳақ ундирилади. Шартнома имзолангандан кейин _____ ойлик муддат ичимлик суви қувурларининг кириш (окова суви қувурларининг чиқиш) жойига сув улчаш асбобларини урнатиш ;

4.1.2. Бош окова қувурларига окизиладиган окова сувининг кимёвий таркиби буйича меъёрий курсатмаларига амал килиш ва белгиланган меъёрлардан ошмаслигини таъминлаш.; бу шартни бузганлиги учун атроф-муҳитни муҳофаза килиш буйича белгиланган санкциялар ва бошқа меъёрий ҳужжатларда назарда тутилган жавобгарлик чоралари қўлланилади.

4.1.3. Ҳар икки йилда сув улчаш асбобларини стандарт органлари қуригидан утказиш.

4.1.4. Ичимлик суви қувурларини таъмирлаш ва жойлашишини узгартириш ишларини «Ижрочи» томонидан ишлаб чиқарилган ва тасдиқланган техник шартлар ҳамда чизмаларга асосланган ҳолда амалга ошириш .

4.1.5. Юридик манзили ва банк реквизитлари узгарган тақдирда бу ҳақда 3 кун ичида «Ижрочи»ни ёзма равишда хабардор килиш.

4.2 «Буюртмачи» нинг ҳуқуқлари;

4.2.1. Уз ходимлари таркибидан ичимлик ва окова сувларининг сарфи, қувурлар ва қурилмаларнинг ҳолатини назорат қилувчи жавобгар шахсни тайинлаш.

4.2.2. Ичимлик суви (окова сувлари) қувурлари ва сув улчаш асбобларини далолатномалардаги ҳисоб-китоблар билан танишиш, норози булган тақдирда далолатномани олган санадан бошлаб 5 кун ичида эътироз билдириш.

4.2.3. Мазкур шартнома шартлари бажарилмаган, ёки тегишли даражада бажарилмаган тақдирда «Ижрочи»га белгиланган тартибда эътироз билдириш.

4.3 «Ижрочи»нинг мажбуриятлари:

4.3.1. Белгиланган стандартлар талабларига сифати жихатидан жавоб берадиган ичимлик суви билан «Буюртмачи»ни узликсиз таъминлаш (форс-мажор ҳолатлари ва «Буюртмалар»нинг айби билан юзага келган ҳолатлар бундан мустасно).

4.3.2. Оқова сувларини оқишиш учун тегишли шарт-шароит яратиш ва қувурларнинг доимий ишга яроқлигини таъминлаш (таъмирлаш ишлари олиб бориладиган вақт бундан мустасно).

4.3.3. «Буюртмачи»нинг топширигига мувофиқ киска муддат ичида унинг ҳисобидан қувурларини утқишиш, уларни тамирлаш ишларини бажариш.

4.4. «Ижрочи»нинг ҳуқуқлари:

4.4.1. Исталган вақтда ичимлик суви (оқова сув) қувурларининг техник ҳолатини, ҳамда сув улчаш асбобларини текшириш « Буюртмачи » тасаруфидаги ҳудудга тусиксиз кириш.

4.4.2. «Ижрочи» томонидан сувни ҳисобга олиш асбоби курсатгичларини қайд қилиш, шартнома шартларига мувофиқ сарфланган сув ҳақидаги маълумотларни тақдим этиш тартиби ва муддатларини белгилаш ҳуқуқи истеъмолчининг узига берилиши мумкин.

4.4.3. « Буюртмачи » « Ижрочи » томонидан курсатилган хизматлардан воз кечиши ёки истеъмол қилинган ичимлик суви, оқизилган сувнинг ҳажми узгарганлиги ҳақида шартномада белгиланган тартибда ва миқдорда хабар бермаган тақдирда, олдинги ойларнинг уртача курсатгичлари асосида ҳақ тулашни талаб қилиш.

4.4.4. Абонент жойлашган ҳудуд тозалик санитария норма қоидаларига жавоб бермас. Экологик муҳит бузилса (шуни ҳам инобатга олиш керакки: шартнома тузиш жароёнида ҳам абонент ҳудуди тозалик, санитария норма қоидаларига жавоб бермас, шартнома тузилмайди) абонентга ичимлик суви етқазиб беришни тухтатиш 10 (ун) кун олдин ёзма равишда огоҳлантириш билан амалга оширилади.

4.4.5. Абонент томонидан истеъмол қилинган сув ҳақи туланмаса «Ижрочи» томонидан 7(етти) кун олдин ёзма равишда огоҳлантирилиб сувни тармоқдан тухтатиш амалга оширилади.

4.4.6. Сув таъминотини қайта ишлаш ишлари, истемолчи томонидан қайта тиклаш харажатлари қоплангандан кейин амалга оширилади.

5. Тарафларнинг жавобгарлиги. Низоларни ҳал қилиш.

5.1. «Ижрочи» ушбу шартнома шартларини бажармаган ёки лозим даражада бажармаётган ҳолда, у келтирган зарарни «Буюртмачи»га тулаши шарт, лекин бу тулов ушбу шартномада назарда тутилган хизматлар баҳосини икки баробаридан ортиқ бўлиши мумкин эмас.

5.2. «Ижрочи» ичимлик сувининг таркиби жихатидан белгиланган мейёрларга жавоб бериши учун жавобгардир.

5.3. «Буюртмачи» ичимлик ва оқова сувларидан фойдаланиш қоидаларини бузганлиги учун амалдаги қонун ҳужжатларига мувофиқ жавобгардир.

6. Шартноманинг амал қилиш муддати, уни узгартириш ёки бекор қилиш тартиби.

6.1. Шартнома тарафларининг вақолатли шахслари томонидан имзоланган пайтдан бошлаб қучга қиради ва 2021__ йилни _____ гача амал қилади.

6.2. Ушбу шартномага ҳар қандай узгартириш ва қушимчалар бўлса, улар ёзма равишда расмийлаштирилган ва тарафларнинг вақолатли шахслари томонидан имзоланган тақдирда ҳақиқий ҳисобланади.

6.3. Шартномани муддатидан олдин бекор қилишга тарафларнинг қелишувига мувофиқ ёки Ўзбекистон Республикасининг қонун ҳужжатларида тутилган асосларга қура етқазилган зарар қопланган ҳолда йул қуйилади.

6.4. Шартномани бекор қилиш қарорига келган тараф иккинчи тарафга 15 кун олдин ёзма билдиришнома юбориши шарт.

6.5. Шартнома икки нусхада тузилган бўлиб биринчи нусхаси «Ижрочи»да ва иккинчи нусхаси «Буюртмачи»да саҳланади.

6.6. Мазкур шартномада назарда тутилмаган барча масалалар Ўзбекистон Республикасининг фуқаролар кодекси, «ҳужалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномани ҳуқуқий базаси тугрисида»ги қонуни ва бошқа тарафлар бажариши мажбурий бўлган мейёрий ҳужжатлар билан тартибга солинади.

7. Тарафларнинг юридик манзиллари ва реқвизитлари.

«Буюртмачи» _____

«Ижрочи» _____

OQAVA SUVLARNI CHIQRIB YUBORISH XIZMATLARINI
KO'RSATISH BO'YICHA SHARTNOMA №

“ _____ ” _____ 2023 yil

Gazli shahar

“Gazli Magistral gaz quvurlari boshqarmasi” keying o‘rinlarda “Ijrochi” nomi bilan o‘z nizomi asosida ish yuritadigan korxonalar rahbari Sh.D. Haydarov bir tomondan _____ keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi, o‘z nizomi asosida ish yurituvchi korxonalar rahbari _____ ikkinchi tomondan quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti.

1.1. “Buyurtmachi”ning talabiga ko‘ra “Ijrochi” oqizilgan oqava suvni chiqarib yuborish xizmatlarini ko‘rsatish majburiyatini oladi:

Bir kunda _____ m³ bir oyda _____ m³ bir yilda _____ m³.

1 m³ oqava suvni chiqarib yuborish xizmati uchun baho QQS bilan 1 568,00 so‘m.

Jami oqizilayotgan oqava suv uchun _____ so‘m.

1.2. “Buyurtmachi” oqizilayotgan oqava suv uchun narxnoma bilan belgilangan bahoda va muddatda haq to‘lash majburiyatini oladi.

2. Ishlar (xizmatlar) qiymati va hisob-kitob qilish tartibi.

2.1. Ko‘rsatilgan xizmatlar uchun shartnomaning taxminiy bahosi _____ so‘mni tashkil etadi.

2.2. Hisob-kitoblar to‘lov topshiriqnonasi bilan pul o‘tkazish shaklida amalga oshiriladi.

2.3. Taraflar o‘rtasidagi hisob-kitoblar suv o‘lchash asboblarning ko‘rsatkichlari asosida amalga oshiriladi. “Buyurtmachi” suv o‘lchash asboblari o‘rnatilmagan taqdirda oqizilayotgan oqava suvlar uchun haq quvur kesimiga asosan 24 soat davomida _____ m³ sekund tezlikdagi sarfiga muvofiq olinadi.

2.4. “Ijrochi” ko‘rsatadigan xizmatlari uchun tariflar miqdori o‘zgargan taqdirda, u bu haqda “Buyurtmachi”ni yozma ravishda habardor qiladi.

3. Xizmatlarni ko‘rsatish va topshirish-qabul qilish tartibi.

3.1. “Ijrochi” ushbu shartnomaning 1-bandida nazarda tutilgan xizmatlarni shaxsan o‘zi O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi hamda oqava suv quvurlaridan foydalanish qoidalari” hamda ushbu shartnoma shartlari asosida ko‘rsatishi shart.

3.2. **“Buyurtmachi” har oyning 25-sanasidan kechikmasdan ko‘rsatilgan xizmatlar summasi miqdorida o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini “Ijrochi”ga yetkazib imzolaydilar** va bu dalolatnoma taraflar o‘rtasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun asos bo‘ladi.

3.3. Oqava suvlarni qabul qilish uzluksiz kechayu-kunduz amalga oshiriladi.

3.4. “Buyurtmachi” har oyda oqiziladigan oqava suv uchun to‘lanadigan pulning 30% miqdorida avans to‘lashi va har oyning yakuni bo‘yicha (25 sanadan kechikmasdan) hisob-varaqasini “Ijrochi”dan olib va 5(besh) kun muddatda oqizilgan oqava suv harajatlarini to‘lab berishi shart.

3.5. “Buyurtmachi” o‘zining oqava suv tarmoqlarini umumfoydalanishdagi va “Ijrochi”ning balansidagi quvurlarga ulashi uchun “Ijrochi”ga belgilangan na‘munadagi ariza bilan murojaat qilishi lozim.

3.6. Xizmatlarni ko‘rsatish jarayonida ularni davom ettirish imkoniyati yo‘qligi va maqsadga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, “Buyurtmachi” bu haqda “Ijrochi”ni habardor qilishi va u bilan birga zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rishi shart.

4. Taraflarning huquq va majburiyatlari.

4.1. “Buyurtmachi”ning majburiyatlari:

4.1.1. Oqizilayotgan oqava suvi shartnomada ko‘rsatilgan **oylik me‘yordan oshmasligi kerak, aks holda shartnomada ko‘rsatilgan oylik me‘yordan ortiqcha oqizilgan 1m³ oqava suv uchun belgilangan tariflarga nisbatan 10,0 orttiriluvchi koeffitsientni qo‘llash yo‘li bilan haq undiradi.** Shartnoma imzolanganidan keyin _____ oylik muddatda oqava suv quvurlarining chiqish joyiga suv o‘lchash asboblari o‘rnatish shart.

4.1.2. Bosh oqava quvurlariga oqiziladigan oqava suvning kimyoviy tarkibi bo‘yicha me‘yoriy ko‘rsatmalarga amal qilish va belgilangan me‘yorlardan oshmasligini ta‘minlash, bu shartni buzganligi uchun atrof-muhitni muxofaza qilish bo‘yicha belgilangan sanksiyalar va boshqa me‘yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan javobgarlik choralari qo‘llaniladi.

4.1.3. Har ikki yilda suv o‘lchash asboblari standart organlari ko‘rigidan o‘tkazish.

4.1.4. Oqava suv quvurlarini ta‘mirlash va joylashishini o‘zgartirish ishlarini “Ijrochi” tomonidan ishlab chiqarilgan va tasdiqlangan texnik shartlar hamda chizmalarga asoslangan holda amalga oshirish.

4.1.5. Yuridik manzili va bank rekvizitlari o‘zgargan taqdirda bu haqda 3 kun ichida “Ijrochi”ni yozma ravishda habardor qilish.

4.2 “Buyurtmachi” ning huquqlari.

4.2.1. O‘z hodimlari tarkibidan oqava suvlarning sarfi, quvurlar va qurilmalarning holatini nazorat qiluvchi javobgar shxsn tayinlash.

4.2.2. Oqava suv quvurlari va suv o‘lchash asboblarning dalolatnomalardagi hisob-kitoblar bilan tanishish, norozi bo‘lgan taqdirda dalolatnomani olgan sanadan boshlab 5 kun ichida e‘tiroz bildirish.

4.2.3. Mazkur shartnoma shartlari bajarilmagan, yoki tegishli darajada bajarilmagan taqdirda “Ijrochi”ga belgilangan tartibda e’tiloz bildirish.

4.3 “Ijrochi”ning majburiyatlari.

4.3.1. Oqava suvlarni oqizish uchun tegishli shart-sharoit yaratish va quvurlarning doimiy ishga yaroqliligini ta’minlash (ta’minlash ishlari olib boriladigan vaqt bundan mustasno).

4.3.2. “Buyurtmachi”ning topshirig’iga muvofiq qisqa muddat ichida uning hisobidan quvurlarini o’tkazish, ularni ta’minlash ishlarini bajarish.

4.4. “Ijrochi” huquqlari.

4.4.1. Istalgan vaqtda oqava suv quvurlarining texnik holatini, hamda suv o’lchash asboblarini tekshirish “Buyurtmachi” tasarrufidagi hududga to’siqsiz kirish.

4.4.2. “Ijrochi” tomonidan suv hisoblagichni ko’rsatkichlarini qayd qilish, shartnoma shartlariga muvofiq oqizilgan oqava suv haqidagi ma’lumotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilash huquqi iste’molchining o’ziga berilishi mumkin.

4.4.3. “Buyurtmachi” “Ijrochi” tomonidan ko’rsatilgan xizmatlardan voz kechishi yoki oqizilgan suvning hajmi o’zgarganligi haqida shartnomada belgilangan tartibda va miqdorda habar bermagan taqdirda, oldingi oylarning o’rtacha ko’rsatkichlari asosida haq to’lashni talab qilish.

4.4.4. Abonent joylashgan hudud tozalik, sanitariya norma qoidalariga javob bermasa, ekologik muhit buzilsa (shuni ham inobatga olish kerakki, shartnoma tuzish jarayonida ham abonent hududi tozalik, sanitariya norma qoidalariga javob bermasa shartnoma tuzilmaydi) oqava suvlarni oqizishga ruxsat berilmaydi va oqava suvlarni chiqarib yuborish xizmatini to’xtatish to’g’risida 10 (o’n) kun oldin yozma ravishda ogohlantirish bilan amalga oshiriladi.

4.4.5. Abonent tomonidan ko’rsatilgan xizmatlar uchun haq to’lanmasa “Ijrochi” tomonidan 7 (yetti) kun oldin yozma ravishda ogohlantirilib oqava suv quvurlarini tarmoqdan ajratish ishlari amalga oshiriladi.

4.4.6. Oqava suv quvurini tarmoqqa ulash ishlari iste’molchi tomonidan qayta ulash xarajatlari qoplanganidan keyin amalga oshiriladi.

5. Taraflarning javobgarligi. Nizolarni hal qilish.

5.1. “Ijrochi” ushbu shartnoma shartlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmayotgan holda, u keltirgan zararni “Buyurtmachi”ga to’lashi shart, lekin bu to’lov ushbu shartnomada nazarda tutigan xizmatlar bahosining ikki barobaridan ortiq bo’lishi mumkin emas.

5.2. “Buyurtmachi” oqava suvlarini oqizish qoidalarini buzganligi uchun amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardir.

6. Shartnomaning amal qilish muddati, uni o’zgartirish yoki bekor qilish tartibi.

6.1. Shartnoma taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2023-yilning 31-dekabrigacha amal qiladi.

6.2. Ushbu shartnomaga har qanday o’zgartirish va qo’shimchalar bo’lsa, ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

6.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga muvofiq yoki O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga ko’ra yetkazilgan zarar qoplangan holda yo’l qo’yiladi.

6.4. Shartnomani bekor qilish qaroriga kelgan taraf ikkinchi tarafga 15 kun oldin yozma bildirishnoma yuborishi shart.

6.5. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo’lib birinchi nusxasi “Ijrochi”da va ikkinchi nusxasi “Buyurtmachi”da saqlanadi.

6.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan barcha masalalar O’zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, “Xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to’g’risida”gi qonuni va boshqa taraflar bajarishi majburiy bo’lgan me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

7. Taraflarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

“Buyurtmachi” _____

“Ijrochi” “Uztransgaz” AJ Gazli MGQB
Buxoro viloyat Romitan tuman Gazli shahar
“Amir Temur” ko’chasi №1 Pochta indeksi:
201002 H/r:20210000600117836147
STIR:200626188 OKED:49500 MFO:00440
Bank: “O’zsanoatqurilishbank” ATB
bosh ofisi

Gazli MGQB boshlig’i:
Suv-bug’ ta’minot sexi
yetakchi muhandisi:

Sh.D.Haydarov
A.O.Rajabov